



KO‘KRAK BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASHDA
MAMMOGRAFIYA VA ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING
AHAMIYATI

Muallif: Xaitmurotova Sevinch Ulug‘bekovna

Telefon: +998 33 133 12 09

E-mail: sevinchcom128@gmail.com

Muassasa: Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Dolzarbligi: Ko‘krak bezi saratoni dunyoda ayollar orasida eng keng tarqalgan onkologik kasallik hisoblanadi. 2022 yilda 2,3 million yangi holat aniqlangan va 670 mingdan ortiq o‘lim qayd etilgan. Erta bosqichda aniqlangan hollarda 5 yillik yashash korsatkichi 90% ga yetadi. Shu sababli, ko‘krak bezi saratonini erta aniqlash va samarali skrining usullarini qo‘llash bugungi tibbiyot uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Kelib chiqishi: Ko‘krak bezi saratoni dastlab kichik o‘sma sifatida paydo bo‘lib, ko‘pincha bemor tomonidan sezilmaydi. An’anaviy tekshiruvlar, jumladan mammografiya va ultratovush, kasallikni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Biroq, yosh ayollar, zich ko‘krak to‘qimasi, ko‘krak implantlari yoki jarrohlik izlari bo‘lgan hollarda mammografiyaning aniqligi past bo‘lishi mumkin. Shu sababli ultratovush erta tashxisda qo‘llaniladi, chunki u kichik va yashirin o‘smalarni ham sezadi va ko‘proq aniqlik beradi.

Maqsad: Ko‘krak bezi saratonini erta aniqlashda mamografiya va ultratovush tekshiruvining diagnostik samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning afzallik hamda cheklovlarini aniqlashdir. Shu bilan birga, yuqori xavfli ayollarda qaysi metod erta tashxis qo‘yishda eng foydali ekanligini aniqlash.



Materiallar va usullar: Ishtirokchilar: 60 nafar ayol, yoshi 40–65, oilaviy anamnezda ko‘krak saratoni bo‘lganlar ustuvor tanlandi.

Mammografiya: Raqamli mammografiya apparati yordamida, har bir ko‘krakdan ikkita tekislikda (craniocaudal va mediolateral) surat olindi. Kichik kalsifikatsiyalar va o‘smalar aniqlashga harakat qilindi.

Ultratovush tekshiruvi: Ko‘krak ultratovush apparati ishlatildi, ayniqsa zich ko‘krak to‘qimasi bo‘lgan yoki oilaviy tarix yuqori bo‘lgan ayollarda mammografiyada ko‘rinmaydigan patalogik o‘zgarishlarni aniqlashda ishlatiladi.

Jarayon: Bemorlar tibbiy tarix va oilaviy anamnez bo‘yicha saralandi. Mammografiya va ultratovush tekshiruvlari bir hafta ichida bajarildi. Natijalar radiolog tomonidan baholandi va kerak bo‘lsa, qo‘shimcha biopsiya tavsiya qilindi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish: Har bir bemor uchun mammografiya va ultratovush natijalari solishtirildi. Aniqlangan patalogik ozgarishlar soni va turiga qarab foizlarda natija chiqarildi

Natijalar: Tadqiqotga 60 nafar 40–65 yoshdagi ayol jalb qilindi.

Mammografiya yordamida patalogik o‘zgarishlar 18 bemorda aniqlanib, bu 30% ni tashkil etdi.

Ultratovush tekshiruvida esa 27 bemorda o‘zgarishlar ko‘rib, bu 45% ga teng bo‘ldi.

Ultratovush yordamida mammografiyada ko‘rinmagan qo‘shimcha o‘zgarishlar aniqlangan bemorlar soni 10% bo‘lib, ularga qo‘shimcha biopsiya tavsiya qilindi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ultratovush ko'krak saratonini erta aniqlashda mammografiyaga nisbatan sezgirligi yuqori va diagnostik aniqlikni oshiradi.

Xulosa: Mammografiya va ultratovush birgalikda yuqori xavfli 40–65 yoshdagi ayollarda ko'krak saratonini erta aniqlash imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Mammografiya 30%, ultratovush esa qo'shimcha 15% o'zgarishlarni aniqladi. Shu bilan birga, shubhali o'zgarishlar biopsiya orqali tasdiqlanadi. Bu usullar hayot davomiyligini oshirish va erta davolash uchun samarali hisoblanadi.

